

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Jild 3, Son 12/1

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 12/1 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик

Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

|   |       |
|---|-------|
| <i>Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич</i><br>ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936<br>ЙИЛЛАР) .....                                  | 12-18 |
| <i>Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li</i><br>QORAQALPOG'ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA "DOBROLET"<br>AKSIYADORLIK JAMIYATINING O'RNI .....        | 19-23 |
| <i>Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna</i><br>QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG'LIQ BA'ZI MAROSIMLAR .....  | 24-29 |
| <i>Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли</i><br>МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК<br>ТАДҚИҚОТЛАРИ .....   | 30-35 |
| <i>Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich</i><br>TO'DA-1 NEOLIT MAKONINING O'ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI<br>O'RGANISHDAGI O'RNI .....                      | 36-40 |
| <i>Olimjonova Gulida Olimjon qizi</i><br>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI ..   | 41-47 |
| <i>O'ng'arov Lazizbek Amiriddin o'g'li</i><br>NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI..                                       | 48-53 |
| <i>Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich</i><br>MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI<br>(JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....      | 54-58 |
| <i>Tilavboyev Muhammad</i><br>JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR .....  | 59-63 |
| <i>To'xtaboyev Xurmatullo Shomirza o'g'li</i><br>O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI<br>(MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA) ..... | 64-68 |
| <i>Рахматиллаев Хасанбой</i><br>МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ<br>МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР .....                  | 69-74 |
| <i>Qurbanova Manzila Boqiyevna</i><br>BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKHLARI VA ICHIMLIKHLARI .....  | 75-80 |
| <i>Ravshanova Gulora</i><br>QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA'MINOTI (XX-asrning 20-<br>yillarida) .....                                    | 81-85 |
| <i>Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич</i><br>ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА<br>ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ .....                            | 86-90 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Baxronov Abdullo Haydar o'gli</i>   |         |
| O'ZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING O'RNI .....   | 91-95   |
| <i>Maxmatqulov Jasur Isroil o'g'li</i>   |         |
| GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....  | 96-101  |
| <i>Eanova Nilufar</i>  |         |
| O'ZBEKİSTON-TURKİYA HAMKORLIGI VA UNİNG NATİJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA) .....  | 102-106 |
| <i>Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли</i>  |         |
| АФРОСИЁБДАГИ СҮФД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50-80-ЙИЛЛАРИ).....  | 107-111 |
| <i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i>  |         |
| ФАРГОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ .....   | 112-117 |
| <i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i>  |         |
| 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....  | 118-124 |
| <i>To'xtamisheva Fotima Musurmonovna</i>   |         |
| MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADO'ZLIGIDA O'ZGARISHLAR.....  | 125-132 |
| <i>Sattorov Nurbek</i>   |         |
| SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING O'ZBEK XALQI ETNOGENEZEI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI ..... | 133-138 |
| <i>Hazratov Nurali Burxon ug'li</i>  |         |
| QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKALARINING O'RGANILISH TARIXIDAN .....   | 139-144 |
| <i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich</i>   |         |
| O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....  | 145-149 |
| <i>Berdiyev Jamshid</i>  |         |
| VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI .....   | 150-155 |
| <i>Djurakulov Sherzod Davronovich</i>  |         |
| SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI .....   | 156-161 |
| <i>Курбанова Дилрабо Шерипбоевна</i>   |         |
| ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ .....   | 162-172 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Zuxriddin Boltayevich Juнаев</i><br>ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924<br>йиллар) .....  | 173-181 |
| <i>Mamatdiev Boxodir Bobojonovich</i><br>QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON .....  | 182-186 |
| <i>Norqo'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich</i><br>AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILINING QONUNIY ASOSLANISHI, O'ZBEKLAR IJTIMOIY-MADANIY<br>HAYOTIDAGI O'RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI) ..... | 187-197 |
| <i>Ibragimov Rahmon Ziyodullaevich</i><br>ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СҮНГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: Дағн үдуми ва<br>миграция масалалари .....  | 198-203 |
| <i>Azamatova Gulmira Bayirbekovna</i><br>ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЪЗИ<br>МУЛОҲАЗАЛАР .....   | 204-208 |
| <i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i><br>1960-1970 YILLARDA O'ZBEKİSTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI<br>FAOLIYATI .....  | 209-215 |
| <b>08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>   |         |
| <i>Ostonokulov Azamat Abdurakovich, Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li</i><br>DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI .....  | 216-226 |
| <i>Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</i><br>O'ZBEKİSTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMI<br>SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI .....   | 227-232 |
| <i>Отабеков Отажон Гайрат ўғли</i><br>ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ<br>МАСАЛАЛАРИ .....  | 233-243 |
| <i>Шакирова Фарғат Болтаевна</i><br>ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ<br>ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ .....  | 244-255 |
| <i>Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич</i><br>ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЬЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ<br>ИСТИҚБОЛЛАРИ .....  | 256-263 |
| <i>Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi</i><br>TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....   | 264-269 |
| <i>Matniyozov Murodjon Rajabbayevich</i><br>DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA<br>QONIQISHINING AHAMIYATI .....                                     | 270-278 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Хамидова Зарифа Урол қизи</i>   |         |
| ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ<br>ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....         | 279-291 |
| <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>  |         |
| KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI ....                                    | 292-296 |
| <i>Худойназаров Фахрутдин Хаитович</i>   |         |
| ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ .....   | 297-304 |
| <i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i>   |         |
| GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....   | 305-313 |
| <i>Кадырова Шарофат Амоновна</i>   |         |
| ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ....   | 314-323 |
| <i>Бегматова Зиёда Захиджановна</i>  |         |
| ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА<br>УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ .....            | 324-332 |
| <i>Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich</i>  |         |
| TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF<br>VITICULTURE PRODUCTS .....             | 333-340 |
| <i>Masharipova Fazilat Axmedovna</i>   |         |
| OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING<br>AHAMIYATI .....                             | 341-348 |
| <i>Мусинов Дишод Султанович</i>  |         |
| ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИННИНГИЖТИМОЙ ВА ИҚТИСОДИЙ<br>САМАРАДОРЛИГИИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА .....          | 349-359 |
| <i>Шакирова Юлдуз Сайдалиевна</i>  |         |
| ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ<br>ПРОЦЕССОВ .....                               | 360-368 |
| <i>Абдиовохидов Мамуржон Авазхон ўғли</i>  |         |
| РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНГ МАЗМУНИ,<br>ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ..... | 369-380 |
| <i>To'xtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</i>  |         |
| DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA .....  | 381-388 |
| <i>Курбанова Раҳима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна</i>  |         |
| РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО<br>РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....                  | 389-403 |
| <i>Набиева Нилуфар Муратовна</i>   |         |
| ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В<br>ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ .....                          | 404-416 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Safarov Radjabboy Eshmukhammadovich</i>  |         |
| KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEXANIZMIDAN<br>SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI .....   | 417-428 |
| <i>Sharipova Zulayho</i>  |         |
| SANOAT TARMOQLARI KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH<br>YO'LLARI .....  | 429-434 |
| <i>Шарипов Акбар Илхамович</i>  |         |
| ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РА҆КАМЛИ МАРКЕТИНГНИ<br>РОЛИ .....   | 435-440 |
| <i>Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич</i>   |         |
| ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ<br>АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ.   | 441-447 |
| <i>Xamzayeva Dilfuza Samarovna</i>  |         |
| SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI<br>RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI .....   | 448-452 |
| <i>Усманова Насиба Акбаржоновна</i>   |         |
| ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ .....   | 453-459 |
| <i>Исхакова Сарвар Аюбовна</i>  |         |
| ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ<br>ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....                                      | 460-467 |
| <i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>  |         |
| INNOVATSION TADBIRLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH<br>VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QO'LLASH<br>IMKONIYATLARI ..... | 468-479 |
| <i>To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi</i>   |         |
| OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN'YIY<br>INTELLEKT .....  | 480-485 |
| <i>Абдураҳимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна</i>   |         |
| ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ<br>ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛANIШ ТАҲЛИЛИ .....   | 486-494 |
| <i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>  |         |
| TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI<br>BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....   | 495-500 |
| <i>Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyorovna</i>  |         |
| ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES .....  | 501-506 |
| <i>Radjabova Malika Ziyodullayevna</i>  |         |
| AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA .....   | 507-512 |

**09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

|   |         |
|---|---------|
| <i>Asraqulova Adiba Nabiyevna</i>   |         |
| ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR .....   | 513-520 |
| <i>Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич</i>   |         |
| ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ФОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ<br>АҲАМИЯТИ .....  | 521-530 |
| <i>Гуламова Мавжуда Ташиулатовна</i>  |         |
| АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНАВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ФОЯЛАРИНИНГ<br>ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ .....                               | 531-538 |
| <i>Abduxolikova Nasiba Alijonovna</i>   |         |
| YOSHLARNING ONLAYN TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI IJOBIY SALBIY<br>OMILLAR .....  | 539-544 |
| <i>Yazdonov Zikirillo Shukurilloyevich</i>  |         |
| QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O'RNI .....  | 545-552 |
| <i>Sharipova Barno Salimovna</i>  |         |
| BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY<br>IMIJI .....   | 553-558 |
| <i>Xalikulova Umida Rustamovna</i>  |         |
| AXBOROT MUHITINING OLIY TA'LIMGA TA'SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV<br>OMILLAR .....                                      | 559-564 |
| <i>Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida</i>   |         |
| OILA VA NIKOH MA'NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI .....  | 565-571 |
| <i>Tog'ayev Nodirjon Ergashevich</i>  |         |
| AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING O'ZBEKİSTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT QURISH<br>HAMDA YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI ..... | 572-576 |
| <i>Kipchoqov Xomidjon Gulomovich</i>  |         |
| JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY MASALASI<br>SIFATIDA .....                                | 577-581 |
| <i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i>  |         |
| ZAMONAVIY OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH:<br>MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI .....            | 582-586 |
| <i>Аззамова Нилюфар Шухратовна</i>  |         |
| "АДАБ АЛЬ-ТАБИБ" КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ .....   | 587-591 |
| <i>Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich</i>   |         |
| INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING<br>MUHIM MEZONI SIFATIDA .....                     | 592-596 |
| <i>Nabiiev Mansur Jamxur o'g'li</i>   |         |
| DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY G'OYALAR EVOLYUTSIYASI VA<br>MODERNIZATSİYASI .....                             | 597-603 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna</i>   |         |
| GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....   | 604-609 |
| <i>Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi</i>   |         |
| O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI .....   | 610-615 |
| <i>Tagayev Ganisher Xasanovich</i>  |         |
| YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY-ESTETIK OMILLARNING O'RNI .....   | 616-625 |
| <i>Шоназаров Жамишид Шухратович</i>   |         |
| БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ФОЯСИ .....   | 626-630 |
| <i>Ҳамраев Сироҷ Абруевич</i>   |         |
| ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАҶНАВИЯТИ .....   | 631-637 |
| <i>Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich</i>   |         |
| MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI: O'ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI .....   | 638-642 |
| <i>Hashimova Gulsina Ismoyilovna</i>  |         |
| HARBIY IJTIMOIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI .....   | 643-648 |
| <i>Karimova Gulnoza Yigitaliyevna</i>   |         |
| AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI .....  | 649-655 |
| <i>Sharipova Kamola Usmonjonovna</i>  |         |
| YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI ..... | 656-661 |

*07.00.00 – Тарих фанлари*

### **O'ng'alom Lazizbek Amiriddin o'g'li**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
“Arxeologiya” kafedrasи I bosqich tayanch doktoranti.

### **NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI**

**Annotatsiya.** Zarafshon havzasi O'zbekistonining markazida joylashgan bo'lib, bu muzofotda insoniyat madaniyat izlari paleolit davridan boshlab mavjud bo'lgan. Bu hududda tashkil topgan madaniyat mahalliy negizda shakllanganligi tadqiqotlar tufayli o'z isbotini topdi. Shuningdek, Nurota tog' tizmasining shimoliy qismi arxeologlar tomonidan keng ko'lamda o'r ganilib kelinmoqda. Bu izlanishlar davomida mintaqa o'rta asrlarda odamlar tomonidan intensiv o'zlashtirilganligi oydinlashdi. Yaqin kunlargacha Nurota tog' tizmasining shimoliy qismida tosh davriga oid topilmalar qo'lga kiritilgan emas edi.

**Kalit so'zlar:** Nurota tog' tizmasi, tosh davri, tosh qurollar, paleolit, neolit.

### **Ongalov Lazizbek Amiriddin ugli**

Samarkand State University after named Sharof Rashidov,  
Department of Archeology, first stage doctoral student

### **HISTORY OF STUDY OF STONE AGE ARCHEOLOGY OF NUROTA MOUNTAIN RANGE**

**Abstract.** The Zarafshan valley is located in the center of Uzbekistan, and in this province, a continuous culture has been created since the Paleolithic era of human cultural traces. Research has proven that the culture formed in this area was formed on a local basis. Also, the northern part of the Nurota mountain range is widely studied by archaeologists. During these researches, it became clear that the region was intensively cultivated by people in the Middle Ages. Until recently, the finds of the Stone Age were not found in the northern part of the Nurota mountain range.

**Key words:** Nurota mountain range, Stone Age, stone tools, Paleolithic, Neolithic.

### **Онгалов Лазизбек Амириддин угли**

Самаркандский государственный университет имени  
Шарофа Рашидова, кафедра археологии,  
докторант первой ступени

### **ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ АРХЕОЛОГИИ КАМЕННОГО ВЕКА НУРОТИНСКОГО ХРЕБТА**

**Аннотация.** Зарафшанская долина расположена в центре Узбекистана, и в этой провинции создана непрерывная культура, начиная с эпохи палеолита, из культурных следов человека. Исследования доказали, что культура, сформировавшаяся на этой территории, формировалась на местной основе. Также археологами широко изучается северная часть Нурутинского горного хребта. В ходе этих исследований выяснилось, что этот регион интенсивно обрабатывался людьми еще в средние века. До недавнего времени находки каменного века в северной части Нурутинского хребта не встречались.

**Ключевые слова:** Нурутинский хребет, каменный век, каменные орудия, палеолит, неолит.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N07>

**Kirish.** Markaziy Osiyo mintaqasi tosh davri yodgorliklariga boy hududlardan hisoblanadi [2.221.]. Dunyo olimlarining nigohida “Markaziy Osiyo” g’arbda Kaspiy dengizidan sharqda Tyan-Shangacha, janubda Ural tog’ etaklari va shimolda Irtish daryosidan janubda Pomir va Kopetdog’gacha cho’zilgan yerlarni belgilash uchun ishlataladi [1.12-20].

Markaziy Osiyoning tarixi o’rganilishini kutayotgan hududlaridan biri Nurota tog’ tizmalaridir. Nurota tog’lari qadimiy So’g’d va Buxoro vohasi hududini issiq Qizilqum qumlari bilan qoplagan. Uzoq o’tmishda Zarafshon vohasiga faqat Ilon o’tti tog’ darasi orqali chiqish mumkin edi (yo’l aylanma yo’l bo’lgani uchun uni ilon yo’liga qiyoslagan) Jizzax va Nurotadagi eng muhim nuqtalar qal’a devorlari bilan himoyalangan.

Bu hudud Zarafshon hamda Mirzacho’l tabiiy geografik tumanlarining bir bo’lagi hisoblanib, tizmaning bir qismi Ustrushona davlatining shimoli – g’arbiy sarhadlarini tashkil etgan. Nurota tizma tog’lari esa ikkala hududni bir-biridan ajratib turadi. Janubda Oqtog’ va Qorachatog’, Shimoliy — g’arbda Qizilqum cho’llari, Sharqda Morguzar tizma tog’lari orasida joylashgan Nurota tog’lari Samarqand, Navoiy va Jizzax viloyatlari hududidagi relyefi o’ziga xos mintaqa bo’lib, tog’ning har ikkala tarafidagi soy vodiylari, obikor vohalar, qir — adirliklarda o’nlab qishloqlar va aholi punktlari joylashgan. Turkiston tizma tog’larining Shimoli — g’arbiy tarmog’i hisoblangan Nurota vohasi Janubda Morguzar tizmasidan Sangzor daryosining Temurlang (Ilono’tdi) darasi bilan ajralib turadi.

Nurota tog’ tizmasining Qizilqum hududining cheksiz kengliklariga qaragan shimoliy yon bag’irlarida buloq suvlari oqib o’tadigan ko’plab tog’ soylari mavjud. Ikkinchisining sharofati bilan daralarda va ularning oldida aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug’ullanadigan aholi punktlari paydo bo’ldi.

Ushbu jamoaning bu hududdagi keyingi tadqiqoti 2022 yil iyul-avgust oylari davomida dala qidiruv ishlari bilan boshlandi. Qidiruv ishlariga B.Sayfullayev, A.Rajabov, doktorant A.Imomov, L.Ungalov, M.Berdiqulov, A.Baxronovlar jalb etildi. Ekspditsiya o’z oldiga Qo’shrabod tumani hududidagi tosh davri yodgorliklarini aniqlash va ilmiy tahlil qilish vazifasini qo’ydi. Tadqiqotchilarning metodikasining xususiyati o’rganilayotgan hududda chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan yalpi qidiruv ishlarini olib borish va qidiruv davomida qisman qazish ishlarini olib borishdan iborat edi [5.15-18].

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Nurota tog’ tizmasining tarixiy-geografik joylashuviga doir mulohazalardan ko’rinib turibdiki, bu hudud qadimdan bir nechta tarixiy madaniy o’lkalarni bog’lashga xizmat qilgan. Yozma manbalarda yaqin davrgacha bu tizmadan o’tgan dasht savdo yo’llari, qurilish va ruda konlari haqida so’z yuritiladi.

Nurota tog’ tizmasi aholisining etnomadaniyati, ilk, rivojlangan o’rta asrlar, xonliklar va mustamlakachilik davri tarixiga oid qator tadqiqotlar olib borilgan. Lekin biz shug’ullanmoqchi bo’lgan tosh davriga oid tadqiqotlar bu hudud uchun deyarli yangilikdir. Chunki bu o’lkaning tabiiy geografik xususiyatlari tosh davri topilmajoylarini saqlanishini qiyinlashtirgan. Shu sababdan bo’lsa kerak tizimli tadqiqotlarni biz uchratmadik. Biz siz bilan aynan Nurota tog’ tizmasining turli qismlarida tosh davriga oid olib borilgan dastlabki tadqiqotlarni ko’rib chiqamiz.

Bu hududning tosh davriga oid dastlabki fikrlar akademik Y. G’ulomovning hozirgi Nurota va Qo’shrabot hududlaridagi qishloq atrofidagi dala ekspeditsiya yodnomalarida

uchraydi. Olim o'z qaydlarida bu hududlar bronza davrida faol o'zlashtirilgan hudud ekanligini. Tosh davri jamoalari izlari ham mavjudligi to'g'risida xulosa bergen.

Nurota tog' tizmalarining Qoratog' yonbag'irlarida 1958 yil arxeolog M.R.Qosimov chaqmoqtosh ustaxonasi va chaqmoqtosh xomashyosi "konlari"ga duch keldi. Keyingi tadqiqotlarida davomida paleolit va neolit davriga oid tosh ustaxonalari tadqiq etildi. Bundan ko'rinish turibtiki, Nurota tog' tizmasining janubiy yonbag'irlarining ibridoziy tarixi Zarafshon vodiysi ibridoziy jamoalari bilan aloqador edi. Keyingi yillar davomida Nurota tog' tizmasida tosh davriga oid izlanishlar ko'p uchramaydi.

2013-yil Nurota tog' tizmasining shimoliy qismida ham tosh davriga doir yangiliklar yuzaga chiqsa boshladi. Gap shundaki, shu yilda atoqli olim R. Sulaymonov rahbarligida O'zRFA O'zbekiston xalqlari tarixi muzeysi va Tokio universiteti o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra O'zbekistonning tosh davrini o'rganish bo'yicha xalqaro hamkor ekspeditsiya tashkil qilindi. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi O'zbekistonning tosh davri yodgorliklarini multidissiplinar yondashuvlar yordamida o'rganishdan iborat bo'ldi. Birinchi dala tadqiqot mavsumida (2013 yilda) O'zbekiston- Yaponiya xalqaro hamkor ekspeditsiyasi Nurota tizmasining shimoliy qismida o'rta paleolitga oid ochiq tipdagi Poshshot makonini ochib o'rgandi. Makon Nurota shahridan taxminan 12–14 km shimoliy-g'arbda, Nurota tog' tizmasi shimoliy etaklarida joylashgan.

Bu yerdagagi Nurota tog' tizmasining chekka etaklarida, botiqning anchayin keng hududiga, janub-sharq yo'nalishi bo'ylab yuqoridagi tog' cho'qqisiga qarab namlik bag'ishlagan buloq joylashgan.

Buloqning bevosita janubiy-g'arb tomonida loydan qilingan qasrning xarobalari joylashgan va u yig'ma sopollariga ko'ra antik va o'rta asrlarda hukm surganligi to'g'risida xulosa berilgan. Qasr Nurota vohasini g'arb tomondan himoya qilib turgan. Buloq hamda qal'ani dastlab kuzatgan R. H. Sulaymonov va A. K. Kabirovlar buloq irmog'i va qal'a shimoliy etagidan kremniydan ishlangan bir nechta uchirindi topib olishgan edilar [3.77].

Buloqdan 50 m janubroqdan qidiruv qazishmasi yotqizilib ( $1\times1$  m) va 70 sm gacha chuqurlashtiriladi. Qazishmaning stratigrafiyasi quyidagicha – yupqa ustki qatlama tagidan qazishma tubigacha qattiq kulrang gumusli tuproqdan iborat va topilmalar uchramaydi. Bunga ekspeditsyaning xulosasi quyidagicha bo'lgan; pleystotsen davri yotqiziqlari pastroqda joylashgan. Bundan tashqari, Ko'lbuloq, Qo'tirbuloq va boshqa shunga o'xshash yodgorliklarni qazishdan qo'lga kiritilgan tajribalarni hisobga olgan holda aytish mumkinki, Poshshotdag'i qadimgi odamlar faoliyatining izlari buloqqa yaqinroq hududlarda konsentratsiyalashgan. Buloqning hovuzini qayta-qayta tozalashlarda, qal'a qurilishida va uni ta'mirlash ishlari davomida buloq yaqinidagi madaniy qatlamlar buzilgan va loy bilan yuqoriga irg'itib yuborilgan. Shundan so'ng buloq hovuzi atrofidagi 50 va 100 metr radiusni, shuningdek, oqib tushgan qal'a devorlari qoldiqlarini kuzatish jarayonida 30 ga yaqin kvarsli uchirindilar va ularning siniqlari yig'ib olinadi, ular o'rta paleolit davri bilan sanalandi. Bundan tashqari, massiv plastina bo'lagidan ishlangan uncha katta bo'limgan yonlama qirg'ich ham topildi va u to'q jigarrangli mayda qumli jinsdan ishlangan. Qirg'ichning ish qirrasi tik va u tangasimon retushlash yordamida shakllantirilgan.

Bu yerdan ikkita yaxshi sifatli kremniylardan ishlangan buyumlar ham topilgan. Ulardan biri yelkali prizmatik plastina edi. U yirik va atipik ko'rinishga ega bo'lib, yorqin och kulrangsimon-jigarrang jinsdan ishlangan. Ikkinci buyum esa kulrang kremniydan ishlangan

qoldiq nukleus bo'lib, unga bir taraflama ishlov berilgan. Ikkinci tomoni esa tekis qobiq bilan qoplangan. Bundan tashqari, bu yerdan tilga olingan kremniy jinslariga tegishli bir nechta mayda uchirindilar ham aniqlangan.

Poshshot topilmajoyining topilishi, unda kremniydan ishlagan tosh materialarga duch kelinishi Nurota tog' tizmasining tosh davriga oid yangi masalalarini o'rtaga tashlagan edi. Olimlar fikricha bu yerdan topilgan kremniy xomashyosi 100 km atrofida uzoqlikdagi Uchtut xomashyo konlaridan yoki yaqin atrofdagi tosh konlardan olib kelingan. Poshshot makoni tosh buyumlari industriyasi uchun xos xususiyat Angillak va Omonqo'ton topilmalariga o'xshashligi qayd etildi. Shu bilan paleolit davri deyarli o'rganilmagan Nurota tog' tizmasidan Poshshot nomli mutlaqo yangi yodgorlik aniqlandi va ilmiy muomalaga kiritildi.

Nurota tog' tizmasining tosh davriga oid yana bir yangilik ham 2013-yilda qayd etildi. 2013 yilning bahorida O'zR FA Arxeologiya instituti va SamDU Arxeologiya kafedrasining paleolitchilar guruhi Jizzax viloyatining Forish tumani hududlarida qidiruv ishlarini olib bordi va bu yerdan bir qator yangi yodgorliklar topib o'rganildi [4.18]. Bu yodgorliklardan biri Go'rdara edi. Bu yodgorlik Forish tumanidagi Birlashgan qishlog'ining shimoliy chekkasida joylashgan Nurota tog' tizmalariga qarashli Go'rdaraning yuqori qismida, hozirda sinib tushgan harsang ayvonning tagida olib borilgan qazish ishlari natijasida uchta tosh buyum topildi. Bu yerdan topilgan tosh buyumlar orasida ikki yoqlama ishlov berilgan qirg'ich, qirg'ichcha hamda kesgich qurollari topildi. To'plamdag'i qirg'ich kremniylashgan ohaktoshdan ishlangan. Go'rdaraning yuqori qismidan topilgan tosh buyumlar so'nggi paleolit davrini xarakterlaydi. Bu yodgorlikdan tashqari ekspeditsiya tomonidan Forish tumani hududida Yangiqishloq, Azimbuloq yodgorliklari ham topib o'rganilgan.

**Natijalar va muhokama.** Yuqoridagilardan ko'rdikki, Nurota tog' tizmasining shimoliy va janubiy yonbag'irlaridan tosh davri mavjudligi to'g'risida signal beruvchi yodgorliklar va topilmalar topildi. Bu asosan hozirgi Nurota va Forish tumanlari hududlarida edi. Lekin, Nurota tog' tizmasining shimoliy va janubiy qismi oralig'idagi hozirgi Qo'shrabot tumani hududlarida tosh davriga oid yodgorliklar uchratilmagan edi. Olimlarning izlanishlari va kuzatuvlari tez orada bu hududning ham tosh davri jamoalari tarixini ochib beruvchi materiallar topilishiga imkon berdi.

2018 yilning mart oyida Samarqand davlat universiteti va Germaniyaning Arxeologiya instituti Yevroosiyo bo'limi bilan hamkorlikda 2018-2020 yillarda "O'zbekiston-Germaniya arxeologik ekspditsiyasini tashkil etish va Zarafshon vohasida razvedka ishlarini olib borish" bo'yicha shartnomaga imzolagan edi. Shu munosabat bilan 2018 yilning 21 aprel-30 may kunlari Qo'shrabod tumani va unga qo'shni hududlarda qo'shma arxeologik ekspeditsiya tashkil etiladi. G'orlarda olib borilgan izlanishlar natijasida 2 ta tosh buyum qo'lga kiritiladi. G'orlardan topilgan tosh qurollari esa ishlov berish texnikasiga ko'ra so'nggi paleolit (40-12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi) davriga mansub. Mutaxassislar bu topilmalar yoshini 30-25 ming yilliklarga oid deb xulosalanadi. Bu topilmalarning topilishi olimlarning keyingi yillardagi tadqiqotlar olib borish uchun qiziqish uyg'otdi [1.20].

Ushbu jamoaning bu hududdagi keyingi tadqiqoti 2022 yil iyul-avgust oylari davomida dala qidiruv ishlari bilan boshlandi. Qidiruv ishlariga B.Sayfullayev, A.Rajabov, doktorant A.Imomov, L.Ungalov, M.Berdiqulov, A.Baxronovlar jalb etildi. Ekspditsiya o'z oldiga Qo'shrabod tumani hududidagi tosh davri yodgorliklarini aniqlash va ilmiy tahlil qilish vazifasini qo'ydi. Tadqiqotchilarning metodikasining xususiyati o'rganilayotgan hududda

chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan yalpi qidiruv ishlarini olib borish va qidiruv davomida qisman qazish ishlarini olib borishdan iborat edi [5.15-18].

Arxeologik tadqiqotlar instituti xodimlari tomonidan Minishkar, Pangat, Oboy qishloqlari xududini arxeologik jihatdan o'rganish va mintaqaning tosh davriga oid topilmalar qo'lga kiritilgan joylarning xaritasini yaratish borasida izlanishlar olib borildi. Tadqiqot uchun rejalashtirilgan butun hududni qamrab olish orqali jadal tadqiqotlar amalga oshiriladi. Mahalliy aholining ko'rsatmalari va tipik kuzatuv orqali yuqorida nomlari keltirilgan qishloqlarning turli hududlarida tadqiqotlar olib boriladi. Bu tadqiqot jamoaga ko'plab topilmalarni qayd etishga katta yordam beradi.

Tadqiqot davomida Oboy qishlog'i boshlanishida kuchli kremniylashgan ohaktoshdan iborat qoya aniqlanadi. Bu yerda olib borilgan izlanishlar davomida tosh qurollarini yasashda ishlataladigan kuchli kremniylashgan ohaktosh xom ashyosi ko'plabtilgani qayd etilgan. Bu punktni ustaxona deb aytishga hali erta deb baholangan. Sababi ushbu joyda hozircha ibtidoiy ustalar tomonidan yasalgan tosh buyumlar aniqlanmaydi. Lekin shu qishloqqa yaqin Qizilboshibuloq topilmajoyidan mazkur punkdan aniqlangan xom ashyodan yasalgan so'nggi paleolit davriga oid uchirindi qo'lga kiritiladi. Ushbu uchirindining tashqi tomoni kuchli mog'or (patina) bilan qoplangan bo'lib, qattiq uchirindi bilan sindirilganligidan dalolat beruvchi negativ mavjud edi.

Olimlar jamoasi izlanishlar davomida qo'lga kiritilgan tosh buyumlarni ikki davrga ajratish haqida fikr yuritishgan. So'nggi paleolit davriga oid uchirindilar, kvarsdan ishlangan qirg'ich, kremniylashgan ohaktoshdan ishlangan nukleuslar yasalish texnikasi va patina bilan qoplanganligi uchun so'nggi paleolit davri bilan sanalangan bo'lsa.

Yashil kremniyidan ishlangan, retushlangan uchirindining distal qismi, kremniyidan ishlangan plastinalar yasalish texnikasi va saqlanish darajasiga ko'ra neolit davriga oid deb hisoblashadi.

Nurota tog' tizmasida joylashgan Pangat, Oboy, Minishkar, Qumoloqli (Qo'shrabot tumani) qishloqlari hududida o'tkazilgan qidiruv ishlari birinchi navbatda kam sonli bo'lsada mintaqa tosh davrida odamzod tomonidan o'zlashtirilganligini asoslovchi paleolit va neolit davriga oid mehnat buyumlarini topishga imkon beradi. Bu tadqiqotlar shunday xulosa beradiki, mintaqada davom ettirilish kutilayotgan tadqiqotlar Zarafshon voxasi tosh davri arxeologiyasini o'rganishda qator ilmiy yangiliklar qo'lga kiritishi shubhasiz. Dastlabki qo'lga kiritilgan natijalar ham bundan dalolat beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamlanib ko'rsatilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatib turibdiki, Nurota tog' tizmasi va uning shimoliy, janubiy yonbag'irlarining ibtidoiy jamoalar tomonidan makon tutulishi paleolit davriga borib taqalmoqda. Tadqiqotlar bu hududni kengroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Bunga bir nechta sabablarni ko'rsatishimiz mumkin.

- Birinchidan, ibtidoiy jamoalar migratsiyasida bu hudud qanday ahamiyatga ega.
- Ikkinchidan, hududda yashagan ibtidoiy jamoalar tosh xomashyolari extiyojini qanday qondirishgan.

- Uchunchidan, neolit davri jamoalarining yondosh madaniyatlar bilan aloqasi qanday va qaysi madaniy birlik vakillari. Neolit davri xo'jalik tiplari qanday.

Keyingi tadqiqotlar albatta yuqoridagi biz qo'ygan savollarga albatta javob bo'ladi deb hisoblaymiz. Zero, Nurota tog' tizmasi qarida yashiringan ibtidoiy davr tarixi zahmatkash olimlar xizmati orqali ochilishda davom etmoqda.

**Адабиётлар / Литература / References:**

1. Аванесова Н., Луно Э., Эргашев О., Холматов А. Қўшрабод туманида 2018-2019 йилларда олиб борилган тадқиқотлар. Ўзбекистонда Археологик тадқиқотлар. №12. Самарқанд. 2020. Б.12-20. (Avanesova N., Luno E., Ergashev O., Kholmatov A. Research conducted in Koshrabad district in 2018-2019. Archaeological research in Uzbekistan. No. 12. Samarkand. 2020. B.12-20)
2. Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Изд-во «Европейский дом». Санкт-Петербург, 1996. -С. 221. (Vishnyatsky L.B. Paleolithic Middle Asia and Kazakhstan. Izd-vo "European House". St. Petersburg, 1996. -S. 221.)
3. Ранов В.А., Несмeyанов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. Душанбе, 1973. -С. 77. (Ranov V.A., Nesmeyanov S.A. Paleolithic and stratigraphy of anthropogenic Sredney Asia. Monday, 1973. -S. 77.)
4. Сайфуллаев Б., Эргашев О., Раджабов А., Унгалов Л., Имомов А. Нурота тоғ тизмасининг шимолий қисмидан топилган тош даврига оид янги топилмалар. //Марказий Осиё ҳалқларининг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий тарихи, моддий ва маънавий маданияти // М.Х Пардаевнинг 65 йиллигига бағишиланган республика илмий амалий конференцияси материаллари. Самарқанд-2023. В. 15-18 (Sayfullaev B., Ergashev O., Radjabov A., Ungalov L., Imomov A. New Stone Age finds from the northern part of the Nurota mountain range. //Socio-economic, political history, material and spiritual culture of the peoples of Central Asia // Materials of the republican scientific and practical conference dedicated to the 65th anniversary of M.Kh Pardaev. Samarkand-2023. B. 15-18.
5. Сайфуллаев Б.Қ., Эргашев О.Т., Рахимов К.А., Ражабов А.Ю., Аллаёрөв Ў. Пардаев Ш.М. Жizzах воҳасининг палеолит даври\\Ўзбекистонда Археологик тадқиқотлар. Самарқанд. 2014. -Б. 16. (Sayfullaev B.Q., Ergashev O.T., Rakhimov K.A., Rajabov A.Yu., Allayorov O'. Pardaev Sh.M. Paleolithic period of Jizzakh oasis\\Archaeological research in Uzbekistan. Samarkand. 2014. -B. 16.)

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 12/1 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
мастъалияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).